



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

10/2023

10/2023



E-ISSN 2181-1466
9 772181 146004



ISSN 2181-6875
9 772181 687004

@buxdu_uz

@buxdu1

@buxdu1

www.buxdu.uz

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal
2023, № 10, noyabr

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.
Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.
Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Rasulov To'liq Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoir Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bekova Nazora Jo'rayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Nigmatova Lola Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori

Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor

Xolliyev Askar Ergashovich, biologiya fanlari doktori, professor

Artikova Hafiza Toymurodovna, biologiya fanlari doktori, professor

Hayitov Shavkat Ahmadovich, filologiya fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Ixtiyarova Gulnora Akmalovna, kimyo fanlari doktori, professor

Rasulov Zubaydullo Izomovich, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, texnika fanlari doktori, professor

Samiyev Kamoliddin A'zamovich, texnika fanlari doktori, dotsent

Esanov Husniddin Qurbonovich, biologiya fanlari doktori, dotsent

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, dotsent

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS

TILSHUNOSLIK *** LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ

Менглиев Б.Р., Гулямова Ш.Қ.	“Оралик учинчи” қонуни ва тилда полифункционал сўзлар муаммоси	4
Yuldasheva D.N.	Sukut – shaxslararo psixolingvistik birlik	14
Mirxanova G.R.	Zamonaviy o‘quv lug‘atchiligida sinonim lug‘atlarni takomillashtirish muammolari	20
Sharipov S.S.	Advancements in contemporary lexicography: a deep dive into electronic and online dictionaries and the nuances of scientific terminology	24
Rustamova D.	Turli tilshunoslik maktab va yo‘nalishlari qarashlarini ensiklopedik lug‘atda ifodalash muammosi	28
Bobokalonov R.R., Ochilova Y.R.	Neyropsixolingvistika: nutq madaniyati va so‘z jozibasi haqida mulohaza	33
Ganieva O.Kh., Khakimova D.M.	Classification and particular challenges of translating tourism terminology from english into russian language	38
Davlatova M.H.	Ingliz tili fe‘l predikatlarining funksional-semantik maydonda voqelanishi	43
Amonturdiyev N.R.	O‘zbek tili etnografizmlarning nominativ xususiyatlari	48
Юлдашева Д.Н.	Использование молчания в деонтологической культуре	53
Yunusova M.Sh.	Shifokorning nutq harakati strategiyasi va taktikalari	60
Rasulov Z.I.	Semantic and syntactic properties of elliptic structures	65
Axmedova D.B.	Til korpuslari va ularning birliklari	70
Kim Y.H., Sunatullaeva M.	우즈베키스탄 한국어 학습자의 모음 발음 양상 연구 -중급 학습자 중심으로-	74
Mardonova S.O.	O‘zbek tilshunosligida so‘z yasash usullari, yasama so‘zning til va nutqqa munosabati	79
Mukhammadieva N.M.	Emotive vocabulary as a means of emotional coloring of a literary text	85
Narzullayeva F.O.	Jahon va o‘zbek tilshunosligida so‘z va polisemantizm	90
Nazarova N.A.	Tilshunoslikda nazariy va amaliy onomastika tasnifi	95
Quvvatova Sh.Ch.	Specific features of English and American romanticism	100
Raxmatov A.P.	Nemis tilida kelasi zamoni ifoda etuvchi vosita va omillarning o‘zaro munosabati	107
Saidov X.Sh.	Features of using abbreviations in sms language and the internet by the materials of English language	111
Shaymanova Y.T., Karshiboeva Z.A.	Speech acts and their place in modern linguistics	115
Tursunov M.M.	The link between language and culture in sociolinguistics	120

NEMIS TILIDA KELASI ZAMONNI IFODA ETUVCHI VOSITA VA OMILLARNING O'ZARO MUNOSABATI

*Raxmatov Axmad Pirmuxammadovich,
Buxoro davlat universiteti, Buxoro, O'zbekiston
axmadraxmatov84@gmail.com*

***Annotatsiya.** Maqolada nemis tili kelasi zamon shakllarining transpozitiv qo'llanishida lisoniy vosita va omillarning munosabati tahlil qilinadi. Bunda kelasi zamon ma'nosini ifodalashda kontekst va g'ayrilisoniy omillarning rolga ham muhim e'tibor qaratilgan.*

***Kalit so'zlar:** zamon shakli, ish-harakat, neytralizatsiya, nutq momenti, kontekst, lug'aviy vosita, situatsiya.*

ОТНОШЕНИЯ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ СРЕДСТВ И ФАКТОРОВ ДЛЯ ВЫРАЖЕНИЯ БУДУЩЕГО ВРЕМЕНИ В НЕМЕЦКОМ ЯЗЫКЕ

***Аннотация.** В статье анализируется соотношение языковых факторов и средств выражения в транспозиции глагольной временной формы немецкого языка. Особое внимание выделяется роли контекста и неязыковых факторов для выражения футуральности.*

***Ключевые слова:** временная форма, действие, нейтрализация, момент речи, контекст, лексические средства, ситуация.*

RELATIONS OF INTERACTION OF MEANS AND FACTORS FOR EXPRESSING FUTURE TENSES IN THE GERMAN LANGUAGE

***Abstract.** The article analyzes the relation of linguistic factors and means of expression for transposition use of tense forms in the German language. Particular attention is allocated the role of context and non-linguistic factors for the expression of the future meaning.*

***Key words:** tens form, action, neutralization, speech moment, context, lexical means, situation.*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda til tizimida kechadigan doimiy o'zgarishlar muammosi o'z dolzarbligini hozirgacha yo'qotmagan. Tilshunoslik fanida olg'a surilayotgan nazariyalarning aksariyatida mazkur ta'limotning u yoki bu jihati o'z aksini topgan. Tilning kommunikativ mohiyatini o'rganish lingvistik tadqiqotlarning bosh maqsadidir. Jumladan, boshqa yetakchi tillar qatori nemis tilining morfologik sathi doirasida fe'l zamon shakllarini o'rganishga alohida e'tibor berilmoqda. Bunda mazkur grammatik kategoriyaning obyektiv zamonni aks ettirish va voqea-hodisalarning asliga muvofiq ifodalay olish imkoniyatlari ko'rsatib berilmog'i darkor. Shu o'rinda nemis tilidagi bir zamon shakli ikkinchisining vazifasida qo'llanishiga doir ko'plab holatlarning yetarli darajada o'rganilmaganligini aytish joiz.

Asosiy qism. Zamon shakllari paradigmatic imkoniyatining sintagmatikadagi muntazam voqelanishi ko'plab variant hosil qiladi. Paradigmatikada miqdori cheklangan zamon shakllariga sintagmatikada ularning hayratomuz turli-tuman qo'llanishi to'g'ri keladi. Shu yo'l bilan miqdori cheklangan mantiqiy belgi (ramz, Zeichen, знак)lar va ularning tilda o'z aksini topishi, ifodalanishi orasidagi ziddiyat, tafovut hal etiladi. Til belgisining bu cheklanganligini bartaraf etishda qarama-qarshi a'zolar orasidagi oppozitsiya sintagmatik neytralizatsiya jarayonining ahamiyati ham kam emas. Zamon shakllari sistemasida paradigmaticada aniq aks etadigan oppozitsiya qatorlari hosil bo'ladi. Kontekstdagi sintaktik va leksik vositalar, shuningdek shakl yasaladigan so'zlar ta'sirida qarama-qarshi a'zolarining farqlovchi belgilari neytrallashishi mumkin. Bunday holda muayyan zamon shakllarining ma'nosi o'zaro yaqinlashadi [1,178-179].

Fe'l zamonlari tizimidagi faol transpozitsiya jarayonlarini tadqiq qilishda bir nechta shaklga kengroq to'xtalish maqsadga muvofiq. Negaki hozirgi zamon nemis tilida jumladan kelasi zamon (yoki futurallik) ma'nosi tilning turli sathi vositalari bilan ifodalanadi. Bunda morfologik vositalar asosiy o'rin tutadi:

1. Futurum I va II futurallik funksional-semantik kategoriyasining yadrosini tashkil qiladi. Kelasi zamonni ifodalash aynan ularning asosiy ma'nosidir. Bu ma'no bilan futurum 1 va 2 grammatik zamon kategoriyasini hosil qiluvchi oppozitsiyalar sistemasiga kiradi.

2) Prezens, preterit, perfekt va plyuskvamperfekt shakllari futurallik funksional-semantik kategoriyasining chekka qismini hosil qiladi. Fe'l zamon shakllarining bu guruhida futural ma'noning namoyon bo'lishi matnga bog'liq bo'ladi.

3) Konditsionalis I va II shakllarining farqlovchi belgisi(irreallik) kontekst ta'sirida chekinganda mazkur ma'no voqelanadi.

4) Prezens yoki preterit shaklidagi fe'l+infinitiv I yoki II qolipli so'z birikmalari. Ularda futural ma'no zamon mantiqiy-grammatik kategoriyasining turli modal ma'nolar bilan uzviy aloqasi tufayli yuzaga keladi.

Ushbu maqolada asosan futurum I va prezensning kelasi zamoni ifodalashiga ta'sir ko'rsatadigan turli vosita va omillarning o'zaro munosabati atroflicha tahlil qilinadi. Har ikkala zamon shakli ham yozma ham og'zaki nutqda keng qo'llanadi. Hozirgi nemis tilida futurum 2 shakli nihoyatda kam qo'llanadi [2,234], deyarli hamma joyda perfekt tomonidan almashtiriladi. Futural prezens esa futurum 1 bilan bimalol raqobat qiladi. Shunga qaramay biz futurum I va futurum 2 shakllari ma'nosining yaqinlashishini kuzatishga muvaffaq bo'ldik. Preterital va prezental qatorlardagidek futural qatorda ham *perfektlik* belgisiga ega bo'lmagan zamon shakli kontekst yoki shakl yasalgan fe'lning lug'aviy xususiyati ta'sirida bu belgiga ega bo'la oladi: Er wollte Bilfingers Material ergänzen; denn der Tag *wird kommen*, da dieses Material mehr als nur historisches Interesse haben wird (L.Feuchtwanger). Ushbu misolda *kommen* intiholi fe'lida *tugallanganlik* lug'aviy xususiyati mavjudligi bois futurum 1 *perfektlik (tugallanganlik)* belgisini ifodalayapti. Aslida futural qatorda bunday ma'no futurum 2 ga xosdir. Intiholi fe'lning lug'aviy ma'nosi futurum I ning futurum II ga yaqinlashishiga qulay sharoit yaratyapti.

Kontekstdagi aspektologik vosita ta'sirida intihosiz fe'ldan yasalgan futurum I shakli ham futurum 2 kabi tugallangan ish-harakatni ifodalay oladi: Mathilde dachte: "Unbefasslich, dass es *in kürzer Zeit* die Sprache *lernen wird*, die der Mensch im Laufe von Jahrmillionen schuf" (L.Frank, Mathilde). Bu misoldagi na futurum I va na *lernen* intihosiz fe'lida *tugallanganlik* ma'nosi mavjud. Faqatgina matnda ishtirok etayotgan *in kürzer Zeit* vositasi kelasi zamonda tugallangan yoki chegaralangan aniq bir payt bo'lagini ifodalashi ta'sirida futurum I da *tugallanganlik* ma'nosi namoyon bo'lmoqda.

Kelasi zamon qatorida hisoblash nuqtasi bo'lgan futurum 1 shakli qarama-qarshi a'zo bilan yaqinlashish imkoniyatini namoyon qilishda o'xshashligini ko'ramiz. Unga aksessiya hodisasi xos [3, 312]. Futurum I nemis tilida boshqa zamon shakllaridan keyin paydo bo'lgan analitik shakldir. Uning zamon shakllari sistemasidagi preterit va prezensga monand o'rni va qo'llanishi sistemaning uyg'unlik va mutanosibligidan darak beradi [3, 312].

Futurallik fe'l bo'lmagan vositalar ta'sirida ham ifodalanadi. Bular: 1) kelasi zamoni ko'rsatuvchi lug'aviy vositalar, 2) intiholi fe'llar, 3) ish-harakatning makon va zamon belgisini bildiruvchi hollar. Ular intihosiz fe'llarning ma'no farqlovchi belgisini neytrallashtira oladi. Ish-harakatning kelasi zamonga oidligi I-shaxs shaklidagi *kriegen, sterben* kabi fe'llar qo'llanganda ham vujudga kelishi mumkin. Bundan tashqari *imperativ+sonst(oder)...*, imperativdan oldin kelib unga mazmunan tobe bo'lgan verbum finitum, *werden+predikativ* kabi birikmalar ham mazkur ma'noni ifodalay oladi.

Futurallikning fe'l bo'lmagan vositalari kelasi zamon ma'nosini mustaqil ravishda ifodalay olmaydi. Ular odatda morfologik vositalar bilan birgalikda qo'llanadi.

Ish-harakatning kelasi zamonga oidligini ifodalashda g'ayrilisoniy omillar ham ishtirok etadi. Bular so'zlovchi va tinglovchining bevosita muloqot vaziyati(situatsiya) hamda ichki monolog vaziyatidir. Indikativ sistemasida futurallikni ifodalovchi fe'l shakllari ikki sinonimik qatorni hosil qiladi: 1) futurum I, futural prezens, futural preterit; 2) futurum II, futural perfekt, futural plyuskvamperfekt.

Futurum I avtotemporal shakl bo'lib uning ma'nolari *amalga oshmagan ish-harakat, kelasi zamon, nutq momenti bilan bog'lanmaganlik* semalaridan tarkib topgan. Uning bu semalari betaraf(neytral) matnda biror vosita yordamisiz namoyon bo'laveradi. Futurum I o'timli fe'ldan hosil bo'lganda III shaxsda muayyan ish-harakatni amalga oshirish istagini bildiradi. Bunda muloqotda ishtirok etmayotgan shaxs yoki narsa o'zga(ya'ni adresat) vazifasini bajaradi: „Very well, *Mister Scheibenkäse* wird heute abend unsere Quittung plötzlic in die Hand kriegen“ (L. Harig). II shaxs shaklida futurum I so'zlovchining xohish-irodasinigina emas, yuz berishi mumkin bo'lgan, kutilayotgan ish-harakatni ham ifodalashi mumkin: „Du *wirst's* aber eisig im Winter *haben*“ (R. Kunze).

Futurum I ning o'ziga xos xususiyatini kelgusidagi ish-harakatning xabar momenti bilan bog'lanmaganligi deb hisoblash lozim. Bu nokontakt kelasi zamon demakdir. Shu bilan birga ish-harakat nutq momentidan keyin, ma'lum vaqt o'tgach yuz berishiga ishora qilinadi. Nutq momentida esa u faqat so'zlovchining tasavvurida mavjud bo'ladi.

Shuni ta'kidlash joizki, futurum I kelasi zamoni anglatuvchi lug'aviy vosita qo'llanmaganda noaniq kelasi zamoni ifodalaydi: Ich glaube bestimmt, dass es nicht allzu schwer *sein wird* (Cl. Meyer).

Futurum I ni tanlash uchun gapdagi nutq momenti va bo'lg'usi ish-harakat orasida muayyan vaqt bo'lishiga ishora mavjud bo'lganda hosil bo'ladi: "Ich bin zur Zeit noch sehr erregt, aber ich *werde* mir Mühe *geben*, ruhiger zu sprechen" (I. Dische). Bu matnda kelasi zamon shakli hozirgi zamon shakliga qarama-qarshi qo'yilsa quyidagi kabi matnlarda kelasi zamon shakli o'tgan zamon shakliga qarama-qarshi qo'yiladi: Sie hat gesagt, dass sie in einer Zelle arbeitet, sie *hat* einmal *geschnattert*, sie *wird* wieder *schnattern* (L. Harig).

Futurum I qo'llanishi imperativga bog'liq bo'lgan matn ham kam emas: Rammah sagte: „Gib dem Gefangenen eine Handvoll Ton, er *wird* das Bildnis seiner Frau *formen*“ (B. Kellermann). Birinchi gapda fe'l buyruq maylida berilgan, tabiiyki ish-harakat nutq momenti bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning bajarilishi hozirgi-kelasi zamonda amalga oshadi. Ikkinchi gapda futurum I qo'llangan, chunki u kelasi zamoni nutq momentidan ajralgan holda ifodalaydi.

Futural shakllarning hamroh modal ma'nosi ma'lum ish-harakatni bajarish istagidir. Bu ma'no futurum I qo'llanganda bu shakl voqea-hodisaning nutq momentiga nisbatan zamon jihatdan uzoqligini ko'rsatishi tufayli alohida ajratib ifodalanishi mumkin. Bunda futurum I ni tanlash uchun ayniqsa uning takrori qulaylik tug'diradi. Bunda so'zlovchi amalga oshirmoqchi bo'lgan ish-harakat ifodalanadi: „Ich *werde*“, sagte nachdrücklich der Dunkle, „heute und morgen und jeden folgenden Tag *an ihrer Seite sein*. Ich *werde* alles *tun*, um die Ausführung dieses Vorhabens zu vereiteln. Ich *werde* Hilfe *herbeiholen*, wenn ihr mich zwingt, selbst von der Polizei!“ (H. Fallada).

Nutq turi ham zamon shakllarini tanlashga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu esa tildagi transpozitiv munosabatlarning imkoniyatini kengaytiradi. Chunonchi so'zlashuv nutqida asosan futural prezensi tanlashga intilish mavjud. Biroq yuqorida ko'rib o'tilgan omillar so'zlashuv nutqida futurum I ni tanlashga sabab bo'lishi mumkin: „Nee, Vata,“ sagt Kuno – Dieter wieder. „Ick hab Angst, du *verjibt* et *nachher* mit dem Bezahlen...Maulschellen *wirste* zum Bezahlen *haben*“ (H. Fallada). Ko'rinib turibdiki, kelasi zamon ma'nosi matndagi bitta gapda prezens, ikkinchisida futurum I orqali ifoda etilgan. Futural prezensi tanlashda quyidagi omillar muhim o'rin egallaydi, ya'ni relevant hisoblanadi:

- 1) zamon munosabatini ifodalashda haddan ziyod ortiqchalik (Übercharakterisierung) va birxillik(monofuturallik tamoyili)ni bartaraf etishga intilish;
- 2) soxta voqelanish effektini yaratishga intilish;
- 3) voqea-hodisaning yaqin kelajakka mansubligini ajratib ko'rsatishga intilish;
- 4) bo'lg'usi voqea-hodisaning amalga oshishiga ishonchni ajratib ko'rsatishga intilish;
- 5) nutq turi;
- 6) adabiy qahramon nomidan hikoya qilish uchun imkoniyat yaratish zarurati.

Futural prezens paradigmatic ma'nosi semalari bilan mustahkam aloqasini saqlab qolganligi tufayli yaqin kelasi zamoni ifodalash uchun qo'llanishi mumkin. Eng maqbul yo'l matnda nisbatan yaqin va uzoq kelasi zamoni bildiruvchi shakllarning navbatma-navbat kelishidir: Nein! Ich *fahre* von der Haustür *ab* und *werde* so lange *fahren*, bis wir im Schnee steckenbleiben (Th. Bernhard). Matnda yordamchi fe'lni takror qo'llashdan saqlanishga intilish kuzatiladi. Passiv va *werden* + *predikativ* kesimida futural prezensi qo'llash shu omil bilan izohlanadi. Bunday matnda voqea-hodisalarning izchil rivojlanib borishini ko'rsatish ko'zda tutilgan bo'lib birdan ortiq shakl ishlatiladi. Bu voqea-hodisalarning birinчисini ifodalash uchun futurum I shakli qo'llanadi: Er *wird* dich *fragen*, wann du geboren *wirst*, und schon *verrätst* du die Sterne deiner Geburt (U. Timm).

Xulosa. Yuqorida keltirilgan fikrlarga tayanib xulosa qilish mumkinki, futurum I shakli matndagi turli vosita va omillar ta'sirida perfektlik belgisini namoyon etadi. Kelasi zamoni ifodalovchi futurum I va futural prezensi qo'llanishi so'zlashuv nutqiga xos bo'lib ularning nisbati biz tahlil qilgan asarlardagi adabiy qahramonlar nutqida 68 ga 32 foizni tashkil qiladi. Muallif nutqi, o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gap va ichki monologda esa futurum I va uning asosiy raqobatchisi futural prezens deyarli bir xil miqdorda uchraydi. Nihoyat matbuotda futurum I ancha ko'p qo'llanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Erben Johannes. *Abriss der deutschen Grammatik*. – Berlin: Akademie-Verlag, 1987. S. 178-179.
2. Hiersche R. *Zur deutschen Satzgliedlehre // Sprachwissenschaft*. – Heidelberg, 1999.- Bd.24, H. 3. - S. 234
3. Ek Britt-Marie. *Das deutsche Präsens. Tempus der Nichtvergänglichkeit*. – Stockholm: Almqvist, 2006. – 312 S.
4. Duden. *Grammatik der deutschen Gegenwartssprache*. - 6., neu bearbeitete Auflage. Herausgegeben von der Dudenredaktion.. –Bd.4.-Mannheim-Leipzig-Wien-Zürich, 1998.-912 S.

5. Ruziev Y., Khudoev S., Rakhmatov A. *The use of the past tenses in German and English* // *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*. – 2021. – T. 11. – №. 6. – S. 61-66.
6. Ruziev Y. *Nemis tili zamon shakllarining publitsistik matnlarda pragmatik maqsadda qo'llanishi* // *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*. – 2020. – T. 2. – №. 2.
7. Abdulxayrov D. *Functional-semantic features of times in german and uzbek languages* // *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*. – 2022. – T. 19. – №. 19.
8. Khudoev S. *The Riddle Genre in World Literature and the History of Research on It* // *International journal of language learning and applied linguistics*. – 2023. – T. 2. – №. 1. – S. 13-15.
9. Pirmukhammadovich R. A. *Flipped Learning in The Educational Process: Essence, Advantages, Limitations* // *Indonesian Journal of Innovation Studies*. – 2022. – T. 18.
10. Babayev O. *The first encounter between jaloliddin rumi and shams tabrizi* // *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*. – 2023. – T. 27. – №. 27.
11. Zoyirovna K. D. *Study of Linguoculturology in Linguistics* // *Miasto Przyszłości*. – 2022. – T. 30. – S. 292-294.
12. Jumayev E. *O'zbek adabiy tilida so'roq gap va o'zlashtirmalik* // *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*. – 2023. – T. 27. – №. 27.